

**ISHLAB CHIQARISHDA LINTERNING O'ZGARTIRILGAN TA'MINLOVCHI  
TIZIMDA SINOV TADQIQOT ISHLARINI O'TKAZISH**

***Toyirov Muhriddin Zoir o'g'li***  
“*TIQXMMI*” MTU Buxoro tabiiy resurslarni boshqarish instituti  
talabasi.  
*Email:* [toirovmuhriddin82@gmail.com](mailto:toirovmuhriddin82@gmail.com)

***<https://doi.org/10.5281/zenodo.8212050>***

**Annotatsiya.** Paxta tozalash korxonalarida dastlabki ishlanayotgan paxtaning chigitidan yiguruvga yaroqli tolalari to'lig'icha ajratib olib tola chiqishini ko'paytirish, tola tarkibidagi kalta tolalar miqdorini kamaytiribtolaning shtapel massa uzunligini orttirish, toladagi nuqsonlar va iflos aralashmalar va momiq tarkibida yiguruvga yaroqli tolalar miqdorini, hamda chigitning mexanik shkastlanishini kamaytirish.

**Kalit so'zlar:** Tola, paxta, momiq, chigit, ЛПЗ-320 rusimli, 5ЛП rusumli, linter, arra, nav, mashina, baraban.

Ishlab chiqarishda linterning o'zgartirilgan ta'minlovchi tizimda sinov tadqiqot ishlarini o'tkazish. Konstruksiya jihatdan o'zgartirilgan ta'mimlash tizimi bo'yicha labaratoriya sharoitida olingan natijalarni ishlab chiqarishga joriy etish maqsadida, Bektemir tajriba-eksternal Paxta tozalash korxonasidagi linter sexiga yangi konstruksiyaga ega bo'lgan, ta'minlash tizimi o'zgartirilgan arrali linter o'rnatildi. Mashinaning har bir validagi arralar soni 160 donadan va umumiysi 320 donani tashkil etgan bo'lib, linter mashina ЛПЗ-320 rusumli deb nomlanadi.

ЛПЗ-320 rusimli arrali linter mashinaning ish jarayonidagi baravariga yoki galma-gal ishlashi, arra almashtirish va kerak bo'lsa, ish jarayonida yuzaga keladigan kichik nosozliklarni bartaraf etish ishlari hisobga olingan. Yangi arrali linter mashinasida sinov ishlarini bajarish uchun, ЛПЗ-320 va 5ЛП rusumli linter mashinalarining o'zaro taqqoslash sinovi o'tkazildi.

Sinash ishlari maxsus metodik reja asosida amalga oshirildi. Bunga asosan, mashinalarning elektr quvvati, chigit va momiq bo'yicha ish unumdarligi aniqlandi. Bunda chigit bo'yicha ish unumdarligi har ikkala mashinadan chiqayotgan chigit 10 daqiqa vaqt oralig'ida alohida yig'ilib, so'ng tarozida tortildi. Momiq esa, kondesordan keyin alohida 20 daqiqa davomida olindi va tarozida tortildi. Bu holat chigit va momiq uchun uch martadan takrorlanib, umumiy og'irlikning o'rtachasi olindi. Shundan so'ng, har iki mashinaning chigit va momiq bo'yicha ish unumdarligini aniqlash uchun olingan natijalar soat bo'yicha hisoblandi.

Sinash uchun Namangan-77 seliksiyali 2 nav 2-chi sinf paxtaning 5ДП-130 rusumli arrali jindan chiqayotgan chigit olindi. Sinov davrida sifat ko'rsatkichlarini aniqlash uchun paxtadan, jindan keyin, linter mashinalaridan olinadigan va keyingi chigitdan hamda momiqdan uch martadan namunalar olindi.

Taqqoslash sinovining natijalari shuni ko'rsatadiki, ЛПЗ-320 arrali linter mashinaning 5ЛП arrali linter mashinadan afzalligi quyidagichadir:

1.Ta'minlovchi tizimdag'i tekislovchi-tozalovchi barabanning olinishi tufayli chigitning mexanik shikastlanishi 0,2-0,3 foizga kamaydi.Bu o'z navbatida ishlab chiqarilayotgan momiqning sifat ko'rsatkichini yuqori bo'lishida, urug'lik chigitlarini

tayyorlashda o'z ta'sirini ko'rsatadi. Ma'lumki, urug'lik chigitni tayyorlashda mexanik shikastlanganlikning kamayishi, undan yetishtiriladigan paxta hom ashyosining hosili va sifat ko'rsatkichlariga ijobiy ta'sirini beradi.

2. Tekislovchi-tozalovchi barabansiz arrali linter mashinaning ishlashdagi umumiylar qurvvati 6,0 Kw ga kamayadi. Chunki ЛПЗ-320 arrali linter ikkita 5ЛП arrali linter asosida tashkil topgan.

3. Ta'minlovchi tizimiga ma'lum burchak ( $40^{\circ}+2^{\circ}$ ) ostida o'rnatilgan to'rli yuza ishchi kameraga tushayotgan chigitlarning bir tekisda yoyilishiga va ish davomida ishchi kamerada chigitli valikning birtekisda to'xtamasdan harakatlanishiga olib keldi. Bu esa, chigitli valikning zinchligi ishchi kamera hajmi bo'yicha birtekisda bo'lishiga, arraning chigit yuzasidan tukdorlikni qurishi yaxshilanganligini ko'rsatadi.

4. Tekislovchi-tozalovchi barabanning olinishi ta'minlash tizim o'lchamining 885 mm dan 560 mm ga kamaytirdi. Bu o'z navbatida, ta'minlovchi tizimning metall sarfini kamaytirdi va arrali linter mashinaning umumiylar o'lchamini kichraytirib, mashinani ishlatishda qulayliklarga olib keladi.

5. Ta'minlovchi tizimiga o'rnatilgan to'rli yuzaga tozalash samaradorligi sinov olingan 1-chi nav 2-chi sinf texnik chigit bo'yicha 18,2 foizni tashkil etdi. Bu linterlash jarayonida olinadigan momiqning ifloslik darajasini kamayganligini ko'rsatadi. To'r ostiga o'rnatilgan pnevmotrupa esa chigitdan chiqayotgan changni va jarayonida ajralayotgan iflosliklarni siklonga yuborish davomida sodir bo'ladigan va inson sog'ligiga salbiy ta'sir ko'rsatadigan changlarni kamaytirib, me'yoriy holatiga keltiradi.

6. ЛПЗ-320 rusumli arrali linter mashinaning chigit bo'yicha ish unumdarligi 2 ta 5ЛП rusumli arrali linter mashinaning ish unumdarligiga teng bo'lib, hozirgi kunda linterlash texnologiya tizimida qo'llanilayotgan 8 ta 5ЛП rusumli arrali linter mashinalarining o'rniga 3 yoki 4 ta ЛПЗ-320 rusumli linter mashinasini ishlatish mumkin. Masshinaning son jihatdan kamayishi, linterlash sexi maydonini ixcham holatga keltiradi, lint kondesorining aerodinamik xolatini yaxshilaydi, ish davomida esa ishchilarining mashinadan foydalanishda xizmat ko'rsatishini yegillashtiradi.

Sinov natijalari ЛПЗ-320 rusumli arrali linter mashinasini yuqorida keltirilgan qulayliklari bilan 5ЛП rusumli arrali linter mashinasiga qaraganda o'zining afzalligini ko'rsatadi.

Komissiya a'zolari yangi linter mashinasini har tomonlama o'rganib chiqib, ishlab chiqarishda mashinadan foydalanishni davom ettirishni hamda boshqa sanoat va seliksion navlarda sinab ko'rishni tavsiya etdilar. Sinov ishining natijasi bo'yicha komissiya a'zolari tomonidan dalolatnoma tuzildi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. O'zbekiston respublikasi vazirlar mahkamasining 70 sonli 3 aprel 2007 yildagi "2007-2011 yillarda paxta tozalash sanoati korxonalarini modernizatsiya va rekonstruksiya qilish dasturi to'g'risida"gi qarori.
2. Paxtani qayta ishlashning muvofiqlashtirilgan texnologiyasi (PDQI) umumiylar taxriri ostida. Toshkent, 2002y. 26-42 b, 71-72 b.
3. Cotton giners Nandbook. USDA, ARS, AgH, N 503. December, 1994. 91-94 b.
4. Кан В.С К вопросу о выборе режима пильного джинирования. Диссертация к.т.н. ТТИ Ташкент, 1968 й. 154.б.

5. Шодиев, З. О. (2023). 42 АРРАЛИ ЛАБОРАТОРИЯ ЖИНИДА БИРИНЧИ  
БОСҚИЧДА ЖИНЛАНГАН ЧИГИТЛАРДАН ЙИГИРУВГА ЯРОКЛИ КАЛТА  
ШТАПЕЛЛИ ТОЛАЛАРНИ АЖРАТИБ ОЛИШ ВА ЖИННИНГ ИШ  
УНУМДОРЛИГИГА АРРАЛАР ОРАЛИК МАСОФАСИНИНГ ТАЪСИРИ.  
O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY  
TADQIQOTLAR JURNALI, 2(20), 297-300.
6. Шодиев З. О., ўғли Умирзаков Ж. У. ЧИГИТДАН ЙИГИРУВГА  
ЯРОКЛИ ҚЎШИМЧА КАЛТА ШТАПЕЛЛИ ТОЛА АЖРАТИБ ОЛУВЧИ ЯНГИ  
ЖИН КОНСТРУКЦИЯСИНИ СИНАБ КЎРИШ НАТИЖАЛАРИ //Educational  
Research in Universal Sciences. – 2023. – Т. 2. – №. 4. – С. 976-980.